



KREDIT-MODUL TEXNOLOGIYASI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI AGEOGRAFIK TAHLILI

¹Izetaeva Gulbaxar Keunimjaevna

Mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti, p.f.b.f.d(PhD), dotsent

²Tadjibayev Rustam Tursunbayevich

Assistent o'qituvchi, Nukus Innovation instituti

³Omarov Turar Muxiyatdinovich

Matematik tahlil kafedrasi stajyor o'qituvchisi, Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7878054>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2023

Accepted: 28th April 2023

Online: 29th April 2023

KEY WORDS

Ta'lim tizimi, kredit, modul, kredit-modul tizimi, ageografik tahlil, ta'lim texnologiyasi, O'zbekiston Respublikasi.

ABSTRACT

Mamlakat ta'lim tizimining reproduktiv holatdan uzluksiz rivojlanuvchi, ochiq holatga o'tishi hamda ta'lim oluvchilarni o'z ta'limiy va ijtimoiy-madaniy manfaatlarini yuzaga chiqarishga yo'naltirish jarayonlari ta'lim tizimi bosh sub'ektlari – ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirish zarurligini taqozo etadi. Bu holat kredit ta'lim tizimi bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil qilishga to'la mos keladi. Shu bois, mazkur maqolaning asl maqsadi mamlakat ta'lim tizimiga kredit modul tizimini joriy etishning ahamiyati ko'rsatib berishdan iboratdir. Shuningdek, maqolada kredit modul ta'lim texnologiyasi va uning ta'lim jarayonidagi ageografik tahlilini ochib berishdan iborat

Ta'lim masalasi jahonning ko'plab mamlakatlarida muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan. Ko'pchilik davlatlarda global raqobat sharoitidagi yangi talablariga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda [5]. Bunda asosiy maqsad oliy o'quv yurtlarining va o'quv dasturlarining moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish akademik va tashkiliy tuzilmani isloh qilish, infrastrukturani, ta'lim metodlari va texnologiyalarini yangilash, pedagogik jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilar tarkibi sifatini yaxshilash orqali rejalashtirilmoqda.

Kredit ta'lim tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasining darajalari, bosqichlari, akademik darajalarini aniq baholashga imkon beradi va ularni shaffof, tashhislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahon ta'lim muhitiga qo'shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi [3, 17]. Shu maqsadda ta'lim tizimiga kredit modul tizimini joriy qilish bo'yicha qator prezident farmonlari va qarorlari imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF- 5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korruptsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-



modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartirish, oliy ta'limda o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sheriklik mexanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan [2].

Hozirgi kunda kredit-modul tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim muhitiga integratsiyalovchi mexanizmlaridan biri sifatida yuzaga kelmoqda. Bu tizimning o'ziga xos jihatlaridan biri chuki, bunda talabalarning mustaqil ta'limiga alohida urg'u beriladi, bu esa o'z navbatida bo'lg'usi mutaxassislarda butun umr davomida o'qib-o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi.

Aynan shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limini modernizatsiya qilish bo'yicha keyingi qadamlar kredit-modul tizimini xalqaro akademik ta'lim tizimini tashkil qilishning asosi sifatida sinab ko'rishga qaratildi.

Akademik kreditning joriy qilinishi o'quv rejalarini takomillashtirish, integrallashgan o'quv kurslari, qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish orqali oliy ta'lim tizimini yangicha tashkil qilish uchun asos bo'ladi va jahon bozorida bizning ta'limimiz va mutaxassislarning raqobat bardoshligini ta'minlaydi.

Milliy ta'lim dasturlarining xalqaro tan olinishini, talabalarning va professor-o'qituvchilarning mobilligini ta'minlash, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hamda oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha bosqichlarda uzviylikni ta'minlash maqsadida mutaxassislarni tayyorlashning uch pog'onali "bakalavr – magistr – doktor" tuzilmasi yagona kredit ta'lim tizimi bo'yicha ikkita bosqichda amalga oshiriladi: oliy ta'lim (bakalavr-magistr) va oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktor).

Shunday qilib, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarini modernizatsiya qilish ta'lim jarayonining tuzilmasi, mazmuni va tashkil qilinishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda, birinchidan, mutaxassislarning tayyorlashning uch pog'onali "bakalavr – magistr – doktor" tuzilmasiga o'tiladi, ikkinchidan, o'rta ta'limdan keyin ikki bosqichli (oliy – oliy ta'limdan keyingi) tuzilma saqlanib qoladi, uchinchidan, kredit ta'lim tizimi qo'llaniladi. Bu ikkila holat ham ta'lim mazmunida sezilarli darajada aks etadi.

Bunda oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi: [6]

- keng fundamental bilimlarga ega, tashabbuskor, mehnat va texnologiyalar bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashuvchan yangi shakldagi mutaxassislarning tayyorlanadi;
- oliy ta'lim tizimini demokratlashtirish orqali sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etishga bo'lgan qiziqishini oshirish;
- alohida oliy o'quv yurtlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tishga tayyorlash, elita oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;



- oliy o'quv yurtlarini boshqarishning yangi tamoyillari va amaliyotini shakllantirish, strategik rejalashtirish tizimini joriy etish va oliy o'quv yurtlarining avtonomligini oshirish;
- talabalarning sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini mustahkamlash, sifatli ta'lim xizmatlari taqdim etish uchun rahbarlarning mas'uliyatini belgilovchi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Ushbu topshiriqlarni oliy o'quv yurtlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish sharoitlarida jamoatchilik nazorati, keng akademik imtiyozlar berish, hamda o'quv jarayonini talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan tarzda tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish va o'qituvchilar orasida raqobat muhitini yaratish orqali amalga oshirish mumkin.

Kredit ta'lim tizimi sharoitida talabalar va professor-o'qituvchilar mobilligi ta'lim muassasasining akademik erkinligi va vakolatlarini kengaytirish orqali ta'minlanadi. Bunda talabalarning akademik erkinligi ularning ta'lim dasturiga kirgan fanlarni o'zlashtirishida mustaqil ishlarning ahamiyatini yuksaltirish orqali o'z faoliyatini va mustaqil bilim olishini tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy sifat ko'rsatkichlari – mehnat bozorida bitiruvchilarga bo'lgan talab, ularning raqobat bardoshligi va kasbiy faoliyatdagi yutuqlari hisoblanadi. Ta'lim tizimi, o'z tabiatiga ko'ra, taraqqiyotning oldingi saflarida boruvchi mexanizm sifatida zamonaviy dunyodagi dinamik o'zgarishlarga o'z vaqtida javob qaytarishi, iqtisodiy o'sish va ilg'or tuzilmaviy o'zgarish jarayonlarini kadrlar bilan ta'minlashi zarur.

Shunday qilib, ta'lim jarayonini tashkil qilishda agreografik tahlil qilish orqali tavsiya qilinayotgan kredit-modul tizimining quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- akademik erkinlik darajasi ortadi (fanlarni mustaqil ravishdani o'rnatish, muddatlarni belgilash, o'qituvchilarni tanlash);
- talabalarning o'quv faoliyatida mustaqil ta'lim ulushining ortishi (kamida 50%);
- dars jadvalini 5 kunlik tizimga o'tkazishning qulayligi (haftasiga 30 soat, kuniga 6 soatdan);
- o'qituvchilarning dars berish faoliyatida rivojlantiruvchi muhitning paydo bo'lishi (maslahat darslari, o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari);
- nazariy ta'lim ulushining kamayishi va talabaning amaliy xarakterdagi o'lchanuvchan ko'nikmalarni orttirishi (turli interfaol ta'lim usullarini joriy qilish, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil ta'limda davom ettirish va ularni aniq faoliyat turlari orqali baholash mezonlari);
- talabalarning mustaqil izlanishga qaratilgan o'quv faoliyatlari (o'zitanlagan shaxsiy ta'lim traektoriyasi bo'yicha o'qish);
- talabalarni hayotda mustaqil bo'lishga ko'niktirish, har semestrda turli akademik guruhlarda o'qishga imkon berish;
- ta'lim dasturlari mazmunining innovatsionligi (ilg'or ilmiy yutuqlarga yo'naltirilganligi);
- talabaning ta'lim muhitiga ta'sir ko'rsatishi (darsning tashkil qilinishiga, o'qitish usullariga taklif va tavsiyalar berishi);
- ta'lim dasturlarida oliy o'quv yurti komponentlari ulushining ortishi;
- interfaol, muammoli-rag'batlantiruvchi, innovatsion o'qitish usullari ulushining ortishi (talabaga yo'naltirilgan ta'lim muhiti);



Xulosa. Ta'lim tizimiga kredit modul texnologiyaini joriy etish bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkin ya'ni kredit modul tizimi joriy qilish orqali keng fundamental bilimlarga ega, tashabbuskor, mehnat va texnologiyalar bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashuvchan yangi shakldagi mutaxassislar tayyorlanadi, oliy ta'lim tizimini demokratlashtirish orqali sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etishga bo'lgan qiziqishini oshiriladi, alohida oliy o'quv yurtlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tishga tayyorlash, elita oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi, oliy o'quv yurtlarini boshqarishning yangi tamoyillari va amaliyotini shakllantirish, strategik rejalashtirish tizimini joriy etish va oliy o'quv yurtlarining avtonomligini oshiriladi. Shu bois mazkur tizimni joriy etish ta'lim tizimini samarali yo'lga qo'yishga asosiy turtki bo'ladi.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги“Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси
3. Азизов У. Кредит-модуль тизими ва унинг ўзига хос хусусиятлари. - http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ECTION_ID=161&ELEMENT (Манбага 24.09.2020 да мурожаат этилган). – 50 с.
4. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртрларида ўқув жараёнини кредитмодуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, ТКТИ, 2020. - 120 бет.
5. Методические рекомендации по внедрению в вузе системы зачетных единиц (кредитов) / [Текст] /. Государственный университет управления, Центр качества [сост. О.В. Давыдова, В.И. Звонников, М.Б. Чельшкова]. – М.: ГУУ, 2010.
6. Рослякова Е.М., Бисерова А.Г., Хасенова К.Х., Байболатова Л.М. Модульная система обучения-опыт и перспективы. – Posted September 25th, 2014 by kaznmu & filed under Английский, Инновационные методы обучения. <https://kznmu.kz/press/2014/09/25/%D0%BC%D0%BE%D0> (Манбага 18.09.2020 да мурожаат этилган, муаллиф томонидан таржима қилинган)